YAPONIYA VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI HAMKORLIK: STRATEGIK MULOQOT, YO‘L XARITALARI VA MODERNIZATSIYA

Durdona Toshboyeva
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch-doktoranti
toshboyevadurdona@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Ivaya Takeshining 2025-yil avgust oyida O‘zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifining mazmun-mohiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy manba bazasini Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi (MOFA) tomonidan e’lon qilingan rasmiy bayonotlar, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA) xabarlari hamda MOFA saytida chop etilgan gazeta maqolalari tashkil etadi. Tahlil metodologiyasi sifatida hujjatli tahlil, kontekstual izoh va qiyosiy-institutsional yondashuvlardan foydalanilgan. Tashrif davomida bir nechta muhim yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy hamkorlik aloqalari mustahkamlandi. Samarqand shahrida “SamAuto” avtomobil zavodi va JICA tomonidan amalga oshirilayotgan olma bog‘i loyihasi doirasida iqtisodiy va agrotexnologik hamkorlikning konkret jihatlari namoyon bo‘ldi. Toshkent bosqichida esa xotira diplomatiyasiga alohida e’tibor qaratilib, Yakkasaroydagi yapon qabristoni va memorial ekspozitsiyaga tashrif orqali tarixiy do‘stlik rishtalari mustahkamlandi. Shuningdek, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida strategik muloqot bo‘lib o‘tdi, unda “Central Asia + Japan” sammitiga tayyorgarlik jarayonlari muhokama qilindi. Tashrifning “yashil transformatsiya” kontekstidagi o‘rni alohida tahlil qilinib, bu jarayon siyosiy (Joint Crediting Mechanism), moliyaviy (JBIC), texnologik-korporativ (Panasonic) va rivojlanish hamkorligi (JICA) kanallari orqali uyg‘unlashgan kompleks paket sifatida talqin qilindi. Ivaya Takeshining mahalliy matbuotda chop etilgan maqolalari esa elita diplomatiyasi bilan jamoatchilik diplomatiyasi o‘rtasida samarali kommunikativ ko‘prik sifatida baholandi.*

Xulosa qismida tashrif O‘zbekiston–Yaponiya aloqalarini yangi bosqichga olib chiqqani, mintaqaviy koordinatsiya, texnologik transfer va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha strategik vektorlarni amaliy bosqichga ko‘targani ta’kidlanadi. Shu tariqa, mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlarni keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga olib chiqqan muhim diplomatik voqea sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: *Yaponiya; O‘zbekiston; Ivaya Takeshi; strategik muloqot; Central Asia + Japan (CA+Japan); JBIC; JICA; “yashil” transformatsiya; jamoatchilik diplomatiyasi; texnologiya transferi; SamAuto; siyosiy koordinatsiya.*

JAPAN–UZBEKISTAN COOPERATION: STRATEGIC DIALOGUE, ROADMAPS, AND MODERNIZATION

Durdona Toshboyeva
Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies
toshboyevadurdona@gmail.com

Abstract. *This article is dedicated to analyzing the official visit of Japanese Foreign Minister Takeshi Ivaya to Uzbekistan in August 2025. The research is based on official statements and press releases issued by the Ministry of Foreign Affairs of Japan (MOFA), materials from the National Information Agency of Uzbekistan (UzA), and newspaper articles (PDF reprints) published on the MOFA website. The methodological approach includes document analysis, contextual interpretation, and comparative-institutional review.*

During the visit, several key areas of cooperation were highlighted. In Samarkand, practical aspects of economic and agro-technological collaboration were demonstrated through visits to the "SamAuto" automobile plant and the apple orchard project implemented by JICA. In Tashkent, attention was given to memory diplomacy, with visits to the Japanese cemetery in Yakkasaroy and a memorial exhibition aimed at strengthening historical friendship. A strategic dialogue was also held between the foreign ministries of both countries, where preparations for the "Central Asia + Japan" summit were discussed.

The significance of the visit within the context of "green transformation" was analyzed, emphasizing a comprehensive package for transitioning to a low-carbon economy through political (Joint Crediting Mechanism), financial (JBIC), technological-corporate (Panasonic), and development cooperation (JICA) channels. Ivaya's articles published in local media were evaluated as an effective communicative bridge between elite diplomacy and public diplomacy.

In conclusion, the visit marked a new stage in Uzbekistan–Japan relations, advancing strategic vectors in regional coordination, technology transfer, and human capital development. Thus, the visit is recognized as a pivotal diplomatic event that elevated bilateral cooperation to the level of comprehensive strategic partnership.

Keywords: *Japan; Uzbekistan; Iwaya Takeshi; Strategic Dialogue; Central Asia + Japan (CA+Japan); JBIC; JICA; green transformation; public diplomacy; technology transfer; SamAuto; policy coordination.*

СОТРУДНИЧЕСТВО ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ДИАЛОГ, ДОРОЖНЫЕ КАРТЫ И МОДЕРНИЗАЦИЯ

Дурдона Тошбоева
Докторант Ташкентского государственного университета востоковедения
toshboyevadurdona@gmail.com

Аннотация. *Настоящая статья посвящена анализу официального визита министра иностранных дел Японии Такэси Ивая в Узбекистан, состоявшегося в августе 2025 года. Исследование основано на официальных заявлениях и пресс-релизах, опубликованных Министерством иностранных дел Японии (MOFA), материалах Национального информационного агентства Узбекистана (UzA), а также газетных статьях (в формате PDF), размещённых на сайте MOFA. Методологический подход включает документальный анализ, контекстуальный комментарий и сравнительно-институциональный обзор.*

В ходе визита были освещены несколько ключевых направлений сотрудничества. В Самарканде были продемонстрированы практические аспекты экономического и агротехнологического взаимодействия — в частности, посещение автозавода "SamAuto" и проекта яблоневого сада, реализуемого JICA. В Ташкенте внимание было уделено дипломатии памяти: визит на японское кладбище в Яккасарае и мемориальная экспозиция способствовали укреплению исторической дружбы. Также состоялся стратегический диалог между министерствами иностранных дел двух стран, в рамках которого обсуждалась подготовка к саммиту "Central Asia + Japan".

Значение визита в контексте "зелёной трансформации" было рассмотрено через призму комплексного подхода к переходу на низкоуглеродную экономику, включающего политические (Joint Crediting Mechanism), финансовые (JBIC), технологические (Panasonic) и кооперационные (JICA) каналы. Публикации Иваи в местных СМИ были оценены как эффективный коммуникативный мост между элитной и общественной дипломатией.

В заключение отмечается, что визит вывел отношения между Узбекистаном и Японией на новый уровень, способствуя практической реализации стратегических направлений в области региональной координации, трансфера технологий и развития человеческого капитала. Таким образом, визит признан важным дипломатическим событием, поднявшим двустороннее сотрудничество до уровня всестороннего стратегического партнёрства.

Ключевые слова: *Япония; Узбекистан; Ивая Такэси; стратегический диалог; Central Asia + Japan (CA+Japan); JBIC; JICA; зелёная трансформация; публичная дипломатия; трансфер технологий; SamAuto; координация политики.*

KIRISH

So‘nggi yillarda Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilib, strategik sheriklik tamoyillari asosida izchil rivojlanmoqda. Bu jarayon ikki davlat tashqi siyosatining uyg‘unlashuvi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. 2025-yil avgust oyida Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Takeshi Ivayaning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi aynan shu tendensiyaning mantiqiy davomidir.[1]

Ushbu tashrif O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi arafasida amalga oshirilgani bois, uning ramziy va siyosiy ahamiyati alohida e’tiborga loyiq: tashrif doirasida ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik va o‘zaro ishonchni yanada mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish orqali iqtisodiy modernizatsiyani qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishlarida hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.[2]

Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu Markaziy Osiyoda Yaponiyaning tashqi siyosatida yangi bosqichni boshlab bergan. O‘tgan davr mobaynida siyosiy muloqot izchil davom etib kelmoqda. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning Tokiodagi uchrashuvlari ikki tomonlama aloqalar uchun mustahkam zamin yaratgan bo‘lsa, bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatida Yaponiya bilan strategik sheriklikni chuqurlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.[3]

2025-yilgi tashrif nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, balki “Central Asia + Japan” mintaqaviy formatidagi hamkorlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etdi. Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati ikki asosiy yo‘nalishga tayanadi: birinchisi – alohida davlatlar bilan mustahkam sheriklikni rivojlantirish, ikkinchisi – mintaqaviy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali diplomatik faollikni kengaytirish.[4]

Tashrif doirasida Samarqand va Toshkent shaharlarida turli tadbirlar tashkil etildi. Samarqandda mahalliy hokimiyat vakillari bilan uchrashuvlar, sanoat obyektlariga tashriflar hamda JICA loyihalari bilan tanishuv bo‘lib o‘tdi. Toshkentda

[1] MOFA Japan. “Foreign Minister Iwaya Visits Uzbekistan (Overview)”. – https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/page4e_001235_00001.html
[2] Iwaya, T. (2025b). «Япония неизменно остаётся надёжным партнёром и другом Узбекистана» [PDF reprint]. Ministry of Foreign Affairs of Japan. https://www.mofa.go.jp/files/100895257.pdf
[3] MOFA Japan. “Japan–Uzbekistan Relations (Overview)” – https://www.mofa.go.jp/region/europe/uzbekistan/index.html
[4] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025b, August 26). Foreign Minister Iwaya’s Visit to Samarkand. https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01231.html Министерство иностранных дел Япо

esa yapon madaniy merosiga oid yodgorliklarga tashrif, memorial tadbirlar, “yashil transformatsiya” va iqtisodiy hamkorlikka oid muzokaralar o‘tkazildi.

METODOLOGIYA

Yaponiya Tashqi ishlar vazirining O‘zbekistonga amalga oshirgan tashrifini tahlil qilish jarayonida ilmiy metodologik yondashuv sifatida turli hujjatli manbalar, rasmiy bayonotlar, matbuot relizlari hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan xabarlar asos qilib olindi. Tadqiqot siyosiy fanlar va xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasida shakllangan metodlarga tayangan holda olib borildi.

Tahlilning asosiy yo‘nalishlari quyidagicha belgilandi: Tarixiy-siyosiy tahlil: Tashrifga oid voqealar xronologik ketma-ketlikda o‘rganilib, ularning siyosiy kontekstdagi ahamiyati tahlil qilindi. Mazmuniy-kontekstual yondashuv: Rasmiy uchrashuvlar davomida bildirilgan pozitsiyalar, bayonotlar va diplomatik nutqlar mazmun jihatdan sharhlanib, ularning kontekstual bog‘liqligi ochib berildi. Qiyosiy-institutsional tahlil: Ikki tomonlama uchrashuvlar natijalari, imzolangan hujjatlar va hamkorlik yo‘nalishlari boshqa mintaqaviy tashriflar bilan solishtirilib, institutsional darajadagi o‘zgarishlar baholandi.

Mazkur metodologik yondashuv tashrifning strategik va mintaqaviy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi hamda O‘zbekiston-Yaponiya munosabatlarining zamonaviy bosqichini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga zamin yaratdi.

Tahlil jarayonida asosiy manba sifatida Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi (MOFA Japan) tomonidan e’lon qilingan rasmiy press-relizlar hamda qo‘shma bayonotlar tanlab olindi. Ushbu hujjatlar tashrifning rasmiy dasturi, amalga oshirilgan uchrashuvlar, memorial tadbirlar, muzey va sanoat obyektlariga tashriflar kabi faktlarga asoslangan ma’lumotlarni taqdim etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA) tomonidan chop etilgan materiallar tahlil qilindi. Bu manbalar tashrif doirasida muhokama qilingan “yashil transformatsiya” va iqtisodiy hamkorlik masalalarini yoritib, rasmiy bayonotlarni O‘zbekistonning milliy manfaatlari nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini berdi.

Metodologik jihatdan xalqaro hujjatlar, jumladan “Central Asia + Japan” muloqoti bo‘yicha e’lon qilingan ma’lumotlar, shuningdek ikki tomonlama bitimlar va deklaratsiyalar kontekstual manba sifatida o‘rganildi. Bu yondashuv tashrifning ikki tomonlama diplomatik ahamiyatidan tashqari, mintaqaviy siyosiy o‘lchovini ham yoritishga xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuv maqolaning keyingi bo‘limlarida keltiriladigan tahliliy natijalarni chuqurroq anglash, ularning amaliy va nazariy ahamiyatini ochib berish uchun mustahkam asos yaratadi.

NATIJALAR

Samarqanddagi tashrif va uchrashuvlar

2025-yil 26-avgust kuni Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Takeshi Ivaya O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida Samarqand shahriga bordi. Ushbu qadimiy shahar O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo diplomatik makonida ramziy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgani sababli tashrif dasturida alohida o‘rin egalladi. Samarqandda O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Bobur Usmanov hamda viloyat hokimi o‘rinbosari Rustam Qobilov bilan uchrashuvlar tashkil etildi.[5]

Muzokaralarda ikki tomonlama iqtisodiy, madaniy va turistik hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Xususan, Samarqandning YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgan obidalari negizida yapon sayyohlarini jalb etish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi, avtomobilsozlik va mahalliy sanoatni modernizatsiya qilishda yapon texnologiyalarini jalb etish istiqbollari muhim mavzu sifatida ilgari surildi.[6]

Gul qo‘yish marosimi va ramziy xotira

Tashrif doirasida Vazir Ivaya O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasiga gul qo‘yish marosimida ishtirok etdi.[7] Ushbu ramziy tadbir Karimovning Yaponiyaga qilgan tarixiy tashriflari va ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishidagi hissasini e’tirof etish sifatida talqin qilindi. Bu orqali Yaponiya tomoni O‘zbekiston bilan shakllangan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarga hurmatini namoyon etdi.

Diplomatik amaliyotda xotira marosimlari “yumshoq kuch” vositasi sifatida qaraladi. Ivayaning ushbu tashrifi tarixiy do‘stlikni eslatib, hozirgi strategik sheriklikning izchil davom etayotganini tasdiqladi.

Samarqand avtomobil zavodiga tashrif

Samarqanddagi “SamAuto” avtomobil zavodi Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning amaliy ifodasidir. Zavodda Isuzu Motors va ITOCHU korporatsiyalari bilan hamkorlikda avtobuslar hamda yuk avtomobillari ishlab chiqarilmoqda. Vazir Ivaya zavod faoliyati bilan tanishib, ishlab chiqarish jarayonlarini ko‘zdan kechirdi.[8]

Bu tashrif Yaponiyaning O‘zbekistondagi sanoat loyihalariga qiziqishi va sarmoya kiritishga tayyorligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston uchun esa ushbu hamkorlik transport infratuzilmasini yangilash, eksport salohiyatini oshirish va mintaqaviy ishlab chiqarish markaziga aylanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

JICA loyihalari doirasidagi tashrif

[5] MOFA Japan. “Foreign Minister Iwaya’s Visit to Samarkand” (26 August 2025). – https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01231.html
[6] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025b, August 26). Foreign Minister Iwaya’s Visit to Samarkand. https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01231.html
[7] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025b, August 26). Foreign Minister Iwaya’s Visit to Samarkand. https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01231.html
[8] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025b, August 26). Foreign Minister Iwaya’s Visit to Samarkand. https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01231.html

Ivaya Samarqandda Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Agentligi (JICA) tomonidan amalga oshirilayotgan olma bog‘i loyihasi bilan tanishdi. Ushbu loyiha mahalliy fermerlarga zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulot yetishtirish imkonini beradi. Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi (MOFA) tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, olma yetishtirishga qaratilgan loyiha doirasida ilg‘or yapon agrotexnologiyalari joriy etilgan. Bu texnologik yangilanishlar natijasida mehnat samaradorligi oshgan, hosilning miqdori va sifati sezilarli darajada yaxshilangan. Eng muhimi, ushbu tashabbus ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj fermerlar uchun barqaror daromad manbai yaratib, ularning turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qilgan.[9]

Tashrif ijtimoiy jihatdan ham muhim bo‘lib, JICA loyihalari O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, qishloq joylarda farovonlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ivayaning olma bog‘iga tashrifi “xalq diplomatiyasi” tamoyillariga mos ravishda amalga oshirildi.

Samarqanddagi natijalar tahlili

Samarqanddagi uchrashuvlar va tashriflar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda natijalar berdi:

- Siyosiy darajada – tarixiy xotira va ramziy diplomatik ishoralar orqali O‘zbekiston-Yaponiya muloqoti mustahkamlandi.
- Iqtisodiy darajada – avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi sohalarida yapon texnologiyalarini tatbiq etish imkoniyatlari kengaydi.
- Madaniy darajada – turizm va xalqaro loyihalar orqali ikki xalq o‘rtasidagi madaniy muloqot faollashdi.

Umuman olganda, tashrifning birinchi kuni ikki davlat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim zamin yaratdi.

Toshkentdagi tashrifning boshlanishi

2025-yil 27-avgust kuni Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Takeshi Ivaya O‘zbekistonga rasmiy tashrifining ikkinchi bosqichini Toshkent shahrida davom ettirdi. Poytaxtdagi dastlabki tadbir Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda qolib ketgan yapon harbiy asirlari dafn etilgan Yakkasaroy qabristoniga tashrif bo‘ldi.[10] Vazir Ivaya ushbu joyda gul qo‘yib, o‘tmishdagi voqealarni yodga oldi. Bu marosim tarixiy xotiraga hurmat ifodasi bo‘lib, ikki xalq o‘rtasidagi insoniylik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yakkasaroy qabristoniga tashrif Yaponiyaning xalq diplomatiyasi doirasidagi madaniy yondashuvini namoyon etdi. O‘zbek xalqining urushdan keyingi og‘ir yillarda yapon asirlarga ko‘rsatgan insoniy munosabati Yaponiya jamiyatida chuqur

[9] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025b, August 26). Foreign Minister Iwaya’s Visit to Samarkand. https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01231.html
[10] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025c, August 27). Foreign Minister IWAYA’s Visit to Republic of Uzbekistan (Morning events on August 27).

minnatdorlik bilan eslanadi. Shu bois ushbu ramziy tadbir ikki davlat o‘rtasidagi tarixiy do‘stlikni eslatib turuvchi muhim diplomatik an’ana sifatida e’tirof etiladi.

Memorial ekspozitsiya va muzeyga tashrif

Vazir Ivaya Toshkentdagi Memorial Ekspozitsiya Muzeyiga ham tashrif buyurdi. Muzeyda Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonda yashab qolgan yapon fuqarolarining hayoti, mehnati va O‘zbekiston jamiyatiga qo‘shgan hissasi aks ettirilgan. Ekspozitsiyalar orqali o‘sha davr voqealari haqida keng qamrovli tasavvur hosil qilish mumkin.[11]

Tashrif davomida muzey vakillari, jumladan, Xalqaro hamkorlik markazi o‘rinbosari Risolat Sultanova tomonidan ekspozitsiyalar haqida batafsil ma’lumot berildi. Bu uchrashuv nafaqat tarixiy xotirani yodga olish, balki kelajakda madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun zamin yaratdi. Bunday muzeylar xalqlar o‘rtasidagi madaniy diplomatiya va o‘zaro tushunishni chuqurlashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Strategik muloqot va MO+Yaponiya

2025-yil 27-avgust kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida O‘zbekiston va Yaponiya Tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari o‘rtasida Strategik muloqot bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida tomonlar ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga intilishlarini bildirdilar hamda “Central Asia + Japan” formatidagi sammitni imkon qadar tezroq tashkil etish bo‘yicha muvofiqlashtirish jarayonini jadallashtirishga kelishib oldilar. Muloqot yakunida ikki tomonlama munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiruvchi Qo‘shma kommyunike imzolandi.[12]

Rasmiy muzokaralar va hamkorlik masalalari

Toshkentdagi tashrif doirasida Yaponiya Tashqi ishlar vaziri O‘zbekiston hukumati vakillari bilan rasmiy muzokaralar o‘tkazdi. Uchrashuvlarda siyosiy ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va xalqaro maydonda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralarda “yashil transformatsiya”, energiya samaradorligi, ekologik barqarorlik, suv resurslarini boshqarish kabi dolzarb yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, yirik sanoat loyihalarini amalga oshirish va yangi investitsiya tashabbuslarini ilgari surish masalalari kun tartibidan o‘rin oldi. UzA bergan ma’lumotga ko‘ra, Toshkent Investitsiya Forumi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) raisi Nobumitsu Hayashi boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Muloqot chog‘ida umumiy qiymati 4 milliard AQSh dollariga teng bo‘lgan qo‘shma investitsiya loyihalari portfeli

[11] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025c, August 27). *Foreign Minister IWAYA’s Visit to Republic of Uzbekistan (Morning events on August 27)*.
[12] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025e, August 27). Japan–Uzbekistan Foreign Ministers’ Strategic Dialogue. https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01233.html

muhokama qilindi. Tomonlar yaqin uch yillik istiqbolda “yashil energetika, axborot texnologiyalari, transport infratuzilmasi hamda sog‘liqni saqlash” sohalarida hamkorlikni jadallashtirish va ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks yo‘l xaritasini ishlab chiqish bo‘yicha kelishuvga erishdilar.[13]

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan Panasonic kompaniyasi vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda binolarni isitishda ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish, issiqlik nasoslarining qo‘llanilishi hamda energiya samarador texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari muhokama qilindi. Shuningdek, ichimlik suvini tejash va uni tozalash bo‘yicha zamonaviy yechimlar yuzasidan ham fikr almashildi.[14]

Shuningdek, Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan hamkorlikda shirinmiya (glycyrrhiza) o‘simligini barqaror yetishtirish va uni chuqur qayta ishlashga qaratilgan yangi loyiha amalga oshirila boshlandi. Ushbu tashabbus dorivor xomashyo bazasini kengaytirish hamda ekologik jihatdan barqaror agrotexnik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.[15]

Toshkentdagi natijalar tahlili

Toshkent bosqichidagi uchrashuvlar va marosimlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda natijalar berdi:

- Tarixiy-madaniy jihat – Yakkasaroy qabristoni va Memorial muzeyga tashrif ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik va insoniy qadriyatlarni yodga soluvchi ramziy hodisa bo‘ldi.
- Diplomatik jihat – rasmiy muzokaralar siyosiy muloqotning izchil davom etayotganini va strategik sheriklikka sodiqlikni tasdiqladi.
- Iqtisodiy va ekologik jihat – barqaror rivojlanish, yashil transformatsiya va investitsiyaviy hamkorlik Toshkentdagi muzokaralarning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Umuman olganda, Toshkentdagi tashrif bosqichi O‘zbekiston–Yaponiya munosabatlarida tarixiy xotira, madaniy aloqalar va barqaror rivojlanish tamoyillarini birlashtirib, hamkorlikning ko‘p qirrali va chuqur tus olganini namoyon etdi.

Prezident darajasidagi qabul

2025-yil 27-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiyaning tashqi ishlar vaziri Ivaya Takeshi bilan uchrashuv o‘tkazdi. Muloqot chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi strategik hamkorlikni yanada mustahkamlash, o‘zaro aloqalarni ko‘p yo‘nalishda kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

[13] UzA. (2025a, June 11). *O‘zbekiston Prezidenti Yaponiyadan JBIC delegatsiyasini qabul qildi*. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-prezidenti-yaponiya-delegaciyasini-qabul-qildi_729470

[14] UzA. (2025c, April 1). *O‘zbekiston va Yaponiya “yashil” transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik qiladi* (Panasonic). https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-va-yaponiya-yashil-transformaciya-zharayonlarini-amalga-oshirish-boyicha-hamkorlik-qiladi_703853

[15] UzA. (2025b, July 11). *O‘zbekiston va Yaponiya hamkorligida yangi loyiha yo‘lga qo‘yildi* (JICA — shirinmiya). https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-va-yaponiya-hamkorligida-yangi-loyiha-yolga-qoyildi_739120

Shuningdek, aynan shu kuni bo‘lib o‘tgan Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi Strategik muloqotning ilk yig‘ilishi natijalari yuqori baholandi.[16]

2025-yil 27-avgust kuni bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Yaponiya Bosh vaziri Shigeru Ishibaning O‘zbekiston Mustaqilligi kuni munosabati bilan yo‘llagan samimiy tabrigi yetkazildi. Muloqot davomida tomonlar siyosiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik hamda madaniy-gumanitar sohalarda amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratdilar. Bu borada konkret loyihalarni ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv doirasida O‘zbekiston–Yaponiya markazining faoliyatini kengaytirish va uning negizida Yaponiyaning yetakchi oliy ta’lim muassasalari ishtirokida qo‘shma universitet tashkil etish tashabbusiga ijobiy munosabat bildirildi.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega masalalar, jumladan, “Central Asia + Japan” formatidagi navbatdagi sammitni tashkil etish yuzasidan fikr almashildi.

Alohida e’tirof etilgan muhim voqea sifatida, 2025-yil 17-avgust kuni Osaka shahrida EXPO-2025 ko‘rgazmasi doirasida o‘tkazilgan O‘zbekiston Milliy kuni tadbirlari muvaffaqiyatli o‘tgani ta’kidlandi. Ushbu tadbir O‘zbekistonning iqtisodiy diplomatiyasini kuchaytirish, turizm va investitsiya salohiyatini targ‘ib qilishda “yumshoq kuch” vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.[17]

Oldindan tayyorgarlik vektori: Tokio va Osaka muzokaralari (15–18 avgust)

2025-yil 15–18-avgust kunlari O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov rahbarligidagi delegatsiya Yaponiyaga tashrif buyurdi. Tokioda va Osakada bo‘lib o‘tgan muzokaralar davomida delegatsiya Yaponiya Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) vakili Masaki Ogushi, shuningdek JBIC, JICA kabi yirik moliyaviy institutlar hamda Sojitz Corporation, Washin Trading, Le One Co. Ltd., Daido Industries, OMETA, ITO Corporation, Okamoto Corporation va Masui singari nufuzli kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Muloqotlarda ikki tomonlama investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, sanoat loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va savdo aloqalarini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.[18]

Tokio va Osaka shaharlarida bo‘lib o‘tgan muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston delegatsiyasi Yaponiyaning Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, o‘zaro investitsiyalarni faollashtirish, energiya samarador texnologiyalarni joriy etish hamda past uglerodli

[16] **UzA.** (2025, August 27). *O‘zbekiston Prezidenti Yaponiya tashqi ishlar vazirini qabul qildi*. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-prezidenti-yaponiya-tashqi-ishlar-vazirini-qabul-qildi_753940
[17] [17] **UzA.** (2025, August 27). *O‘zbekiston Prezidenti Yaponiya tashqi ishlar vazirini qabul qildi*. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-prezidenti-yaponiya-tashqi-ishlar-vazirini-qabul-qildi_753940
[18] **UzA.** (2025, August 19). *O‘zbekiston va Yaponiya hamkorligi uchun yangi imkoniyatlar*. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-va-yaponiya-hamkorligi-uchun-yangi-imkoniyatlar_750664 Uza.uz

tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘shma kreditlash mexanizmini yaratish masalasini muhokama qildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, O‘zbekiston gilosini Yaponiyaga eksport qilish uchun fitosanitariya ruxsatnomasi olish jarayonini tezlashtirish, shuningdek energetika va strategik metalllarni qazib olish hamda ularni qayta ishlash bo‘yicha hamkorlik istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda mavjud loyihalarni jadallashtirish, yangi tashabbuslarni moliyalashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Sojitz Corporation bilan muzokaralar yakunida energetika, sog‘liqni saqlash, infratuzilma va boshqa ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oluvchi hamkorlikning “Yo‘l xaritasi” imzolandi.

Delegatsiya, shuningdek, Osaka shahrida EXPO-2025 ko‘rgazmasi doirasida o‘tkazilgan O‘zbekiston Milliy kuni tadbirlarida ishtirok etib, mamlakatning investitsiyaviy va madaniy salohiyatini targ‘ib qilishga hissa qo‘shdi.[19]

Tahliliy yakun: yuqori darajadagi diplomatiya + iqtisodiy “tayyorlov”

Yuqoridagi ikki voqea tahlili shuni anglatadiki, 2025-yil 27-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘tkazilgan yuqori darajadagi qabulda muhokama qilingan masalalar — strategik sheriklikni chuqurlashtirish, qo‘shma universitet tashkil etish, “Central Asia + Japan” sammitini tezlashtirish hamda EXPO-2025 doirasidagi sinergetik imkoniyatlardan foydalanish — diplomatik darajadagi eng muhim bosqich sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur uchrashuvga olib kelgan tayyorgarlik esa 15–18-avgust kunlari Tokio va Osaka shaharlarida o‘tkazilgan iqtisodiy va institutsional muzokaralar orqali amalga oshirildi. Ushbu muzokaralar Prezident qabulida belgilangan strategik maqsadlar uchun amaliy asos yaratdi.

Xususan, METI bilan olib borilgan muloqotda qo‘shma kreditlash mexanizmini shakllantirish, past uglerodli va energiya tejamkor texnologiyalarni ustuvor qilish masalalari muhokama qilindi. JBIC bilan uchrashuvlarda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, mavjud loyihalarni jadallashtirish va yangi tashabbuslarni moliyalashtirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Sojitz kompaniyasi bilan esa energetika, sog‘liqni saqlash, infratuzilma va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oluvchi “Yo‘l xaritasi” imzolandi.

MUHOKAMA

Ko‘p bosqichli diplomatiya va institutsional uyg‘unlik

[19] **UzA.** (2025, August 19). *O‘zbekiston va Yaponiya hamkorligi uchun yangi imkoniyatlar*. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-va-yaponiya-hamkorligi-uchun-yangi-imkoniyatlar_750664 Uza.uz

2025-yil 24–28-avgust kunlari amalga oshirilgan rasmiy tashrif davomida siyosiy darajadagi muloqotlar bir-birini to‘ldiruvchi tarzda tashkil etildi. 27-avgust kuni o‘tkazilgan Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi strategik muloqot ikki tomonlama institutlararo hamkorlik mexanizmlarini belgilab berdi va mintaqaviy darajada “Central Asia + Japan” sammitini imkon qadar tezroq o‘tkazish bo‘yicha muvofiqlashtirishga erishildi. Shu kunning yakunida, soat 16:25 da bo‘lib o‘tgan Prezident qabulida esa ushbu siyosiy jarayonlar rasmiy ravishda mustahkamlandi.

Xotira diplomatiyasi — jamiyatlararo ishonch kapitali

Toshkentda o‘tkazilgan ertalabki tadbirlar — Yakkasaroydagi yapon qabristoni va Memorial ekspozitsiya muzeyiga tashrif — tarixiy xotirani zamonaviy hamkorlik narrativi bilan bog‘lab, xalqlararo ishonchni mustahkamlashga xizmat qildi. MOFA tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, muzeyda Risolat Sultanova tomonidan eksponatlar bo‘yicha sharh berilgan. Bu yondashuv O‘zbekiston–Yaponiya munosabatlarini “odamlar darajasi”da chuqurlashtirishga zamin yaratadi.

Jamoatchilik diplomatiyasi va ommaviy kommunikatsiya

Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Ivayaning O‘zbekistonda chop etilgan mualliflik maqolalari (PDF formatda MOFA saytida e’lon qilingan) siyosiy pozitsiyalar va hamkorlik tamoyillarini ommaga tushunarli tarzda yetkazadi. Bu esa elita diplomatiyasi bilan jamoatchilik muloqoti o‘rtasida samarali “ko‘prik” vazifasini bajaradi.

“Yashil” transformatsiya uchun kompleks instrumentlar

Strategik muloqot doirasida Joint Crediting Mechanism (JCM) muhokama qilinib, uglerod intensiv sohalarda modernizatsiya uchun siyosiy asos yaratildi. Shu bilan birga, Panasonic kompaniyasi bilan issiqlik nasoslari, energiya tejamkor texnologiyalar va ichimlik suvi bo‘yicha yechimlar ko‘rib chiqildi. JBIC bilan olib borilgan muzokaralarda esa 4 milliard AQSh dollariga teng portfel shakllantirilib, “yashil energetika, IT, transport va sog‘liqni saqlash” sohalarini qamrab oluvchi 3 yillik dastur va kompleks yo‘l xaritasi bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bu uch vektor — siyosiy (JCM), korporativ (Panasonic) va moliyaviy (JBIC) — “yashil” o‘tish jarayonini bir butun paket sifatida taqdim etadi.

Rivojlanish hamkorligi va agrar qiymat zanjiri

Samarqanddagi kun tartibida SamAuto (Isuzu/Itochu) va JICA tomonidan qo‘llab-quvvatlangan olma bog‘iga tashrif amalga oshirildi. Bu tashrif sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida ikki sektoriy “ko‘prik”ni namoyon etdi. MOFA ma’lumotlariga ko‘ra, olma loyihasi ish unumdorligi, hosildorlik va sifatni oshirish orqali zaif fermerlar farovonligini yaxshilagan. Shuningdek, JICA tomonidan amalga oshirilayotgan shirinmiya (glycyrrhiza) loyihasi — treninglar, sifat nazorati, bozorga chiqish va mahalliy salohiyatni oshirish — O‘zbekistonning qurg‘oqchil hududlari

uchun moslashtirilgan agrar yechimlar bilan uyg‘unlashadi. Bu esa eksportga yo‘naltirilgan barqaror qiymat zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi.

Diplomatik “cho‘qqi” va tayyorgarlik yo‘lagi

27-avgustdagi Prezident qabulida strategik sheriklik, O‘zbekiston–Yaponiya markazi faoliyatini kengaytirish, qo‘shma universitet tashkil etish va CA+Japan sammiti masalalari muhokama qilindi. Bu diplomatik “cho‘qqi”ga olib kelgan tayyorgarlik esa 15–18-avgust kunlari Tokioda va Osakada o‘tkazilgan muzokaralar orqali amalga oshirildi. METI, JBIC, JICA, Sojitz kabi tashkilotlar bilan olib borilgan muloqotlar — qo‘shma kreditlash, past uglerod tashabbuslari, xususiy sektorni moliyalashtirish va yo‘l xaritasi kabi instrumentlar — siyosiy qarorlarni amaliy loyihalarga aylantirishni tezlashtiradi.

Xavfsizlik va tashqi siyosat koordinatsiyasi

Prezident qabulida global va mintaqaviy masalalar — Rossiya–Ukraina mojarosi, Sharqiy Osiyo, KXDR (yadro, raketa, odam o‘g‘irlash) — bo‘yicha xalqaro hamkorlikni davom ettirishga kelishildi. Bu strategik sheriklikning faqat iqtisodiy emas, balki xalqaro qoidalarga asoslangan tartibni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida ham muvozanatli ekanini ko‘rsatadi.

Cheklovlar va ehtiyot choralar

MOFA va UzA tomonidan e’lon qilingan rasmiy kommunikatsiyalar niyat va yo‘nalishlarni aniq ifodalaydi. Biroq ayrim bitimlarning moliyaviy-texnik tafsilotlari ochiqlanmagan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, hozircha natijalar institutsional tayyorgarlik va siyosiy signallar darajasida baholanadi. Tahlil faqat ochiq manbalarga asoslangan bo‘lib, yopiq muzokaralardagi shartlar jamoatchilikka ma’lum bo‘lmaguncha taxmin qilinmaydi.

SIYOSIY TAVSIYALAR

- *CA+Japan sammitini tezlashtirish:* Mintaqaviy dasturlarni (energetika, logistika, inson kapitali) ikki tomonlama rejalar bilan muvofiqlashtirish.[20]
- *JCMni sektorlar kesimida kengaytirish*: Energetika, sanoat, issiqxona va kommunal xo‘jalik sohalarida “pilotdan masshtabga” o‘tish, shaffof MRV tizimi bilan qo‘llab-quvvatlash.[21]
- *JBIC va xususiy sektor uchun loyihalar pipeline’ini optimallashtirish:* Kam uglerodli va energiya tejamkor loyihalarni ustuvorlashtirish, Panasonic texnologiyalarini jamoat inshootlarida sinovdan o‘tkazish.[22]
- *JICA loyihalarida mahalliy bilim transferini kuchaytirish:* Olma texnologiyalari va shirinmiya klasteri asosida agro-klaster modelini barqarorlashtirish va kengaytirish.[23]

[20] https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01233.html
[21] https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01233.html
[22] https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-prezidenti-yaponiya-delegaciyasini-qabul-qildi_729470
[23] https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-prezidenti-yaponiya-delegaciyasini-qabul-qildi_729470

XULOSA

2025-yil avgust oyida Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Ivaya Takeshining O‘zbekistonga amalga oshirgan tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlash, mintaqaviy hamkorlik platformalarini uyg‘unlashtirish va iqtisodiy-modernizatsion yo‘nalishlarni “yashil” transformatsiya bilan bog‘lashga qaratilgan kompleks diplomatik tashabbus sifatida namoyon bo‘ldi. Rasmiy bayonotlarda ikki tomonlama muloqotni tizimli asosda rivojlantirish hamda “Central Asia + Japan” sammitini yaqin muddatda o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish masalalari aniq belgilandi.

Tashrifning ramziy va siyosiy qatlamlari Samarqand hamda Toshkentda o‘tkazilgan tadbirlar orqali uyg‘unlashdi. Samarqandda bo‘lib o‘tgan ishchi uchrashuvlar, SamAuto zavodidagi kooperatsiya va JICA tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan olma bog‘i loyihasi texnologik transfer hamda agrar qiymat zanjiri bo‘yicha amaliy asos yaratmoqda. Toshkentdagi Yakkasaroy yapon qabristoni va Memorial ekspozitsiyaga tashrif esa urush yillaridagi tarixiy xotirani zamonaviy hamkorlik narrativi bilan bog‘lab, jamiyatlararo ishonchni mustahkamlovchi “yumshoq kuch” mexanizmlarini faollashtirdi.

Strategik muloqot siyosiy darajada ikki asosiy yo‘nalishni birlashtirdi: birinchidan, mintaqaviy darajada CA+Japan sammitiga tayyorgarlikni jadallashtirish; ikkinchidan, ikki tomonlama darajada inson kapitali, “yashil” iqtisodiyot va texnologik modernizatsiya bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashtirish. Uchrashuv yakunida qo‘shma kommyunike e’lon qilinib, grant asosidagi inson resurslarini rivojlantirish va hududiy iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi loyihalar taqdim etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘tkazilgan qabulda strategik sheriklikning institutsional poydevori mustahkamlandi. Muloqotda O‘zbekiston–Yaponiya markazi negizida qo‘shma universitet tashkil etish tashabbusi ilgari surildi, shuningdek xalqaro kun tartibidagi masalalar — jumladan, Sharqiy Osiyo va KXDR bilan bog‘liq muammolar — bo‘yicha hamkorlikni davom ettirishga tayyorgarlik bildirildi. Bu yondashuv hamkorlikni faqat iqtisodiy emas, balki qoidalarga asoslangan xalqaro tartib va xavfsizlik tamoyillari bilan bog‘laydi.

Iqtisodiy va “yashil” transformatsiya vektorlari UzA manbalarida yaqqol aks etgan: JBIC bilan tuzilgan investitsiya portfeli qariyb 4 milliard AQSh dollarini tashkil etib, 3 yillik dastur hamda kompleks yo‘l xaritasi asosida modernizatsiya uchun moliyaviy va institutsional zamin yaratilmoqda. Panasonic bilan o‘tkazilgan muzokaralarda energiya tejamkor texnologiyalar va suv resurslarini boshqarish bo‘yicha yechimlar muhokama qilindi. JICA tomonidan boshlangan shirinmiya (glycyrrhiza) loyihasi esa ODA doirasida agrar sektorni barqarorlashtirishga qaratilgan amaliy tashabbus sifatida e’tirof etildi. Shu tarzda siyosiy (Strategik muloqot), korporativ (Panasonic), moliyaviy (JBIC) va rivojlanish hamkorligi (JICA) kanallari

bir butun paketga kelib, “yashil” transformatsiyani jadallashtirish uchun ko‘p qatlamli instrumentlar majmuasini shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud. Rasmiy press-relizlar asosan siyosiy niyat va institutsional yo‘nalishlarni belgilaydi, biroq ayrim loyihalarning moliyaviy-texnik tafsilotlari — masalan, shartlar, muddatlar, MRV tizimlari — jamoatchilikka to‘liq ochiqlanmagan. Shu sababli, ushbu tahlil faqat ochiq manbalarga tayangan holda sifat jihatidan xulosa beradi. Kelgusida amaliy natijalarni baholash uchun loyihalarga oid ochiq hisobotlar, monitoring ko‘rsatkichlari va MRV tizimlari asosida chuqur tahlil zarur bo‘ladi.

Tavsiyalar

1. CA+Japan sammiti tayyorgarligini sektoriy paketlar bilan bog‘lash — energetika, transport va inson kapitali yo‘nalishlarida aniq rejalarni muvofiqlashtirish.
2. JCM mexanizmini tizimli bosqichga o‘tkazish — pilot loyihalardan keng ko‘lamli amaliyotga o‘tish, MRV tizimi bilan shaffof monitoringni ta’minlash.
3. JBIC va xususiy sektor bilan “blending” mexanizmlarini kengaytirish — energiya tejamkor va past uglerodli loyihalarni ustuvorlashtirish, Panasonic texnologiyalarini jamoat inshootlarida sinovdan o‘tkazish.
4. JICA agrar loyihalarini hududiy miqyosda kengaytirish — olma va shirinmiya klasterlarini qiymat zanjiri asosida ko‘paytirish, mahalliy bilim transferini kuchaytirish.[24]

Yaponiya Tashqi ishlar vazirining O‘zbekistonga tashrifi iqtisodiy modernizatsiya, “yashil” transformatsiya, jamoatchilik diplomatiyasi va mintaqaviy koordinatsiya chorrahasida joylashgan bo‘lib, O‘zbekiston–Yaponiya hamkorligining yangi bosqichini belgilab berdi. Yaqin yillarda bu aloqalar aniq loyihalar, ta’lim va ilmiy hamkorlik orqali yanada chuqurlashishi kutilmoqda.

[24] UzA. (2025, July 11). *O‘zbekiston va Yaponiya hamkorligida yangi loyiha yo‘lga qo‘yildi* (JICA — shirinmiya). https://uza.uz/uz/posts/739120